



**2-TOM, 5-SON
PUDRAT SHARTNOMASI**

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi

Xidirova Hosila Salohiddin qizi

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqola Pudrat shartnomasi tushunchasi,tuzilishi hamda fuqarolik huquqidagi tadbiq etilishi haqida yozildi

Kalit so'zlar: Pudrat,Rim tarixi, locatio-conductio operis,buyirtmachi,pudratchi

Pudrat shartnomasi shartnomasini hayotimizda ko'p uchratamiz.Uning kelib chiqishi va o'zi nima ekanligi haqida to'xtalib o'tsak,Pudrat so'zi aslida ruscha so'zdan olingan bo'lib podryad bir yo'la degan ma'noni anglatadi.Fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf ikkinchi taraf ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi. Pudrat shartnomasining tarixi Rim huquqiga borib taqaladi, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, rim huquqi sivilistlari ham pudrat munosabatlarini, uning vujudga kelish asoslarini, munosabatni tartibga solish usul va vositalarini ilmiy va amaliy o'rganishga harakat qilishgan u davrda amalda bo'lgan turli normativ-hujjatlar orqali tartibga solishgan. Pudrat shartnomasi (locatio-conductio operis) Rim huquqida ashyolarni, ishlar va xizmatlarni ijaraga berish shartnomasi (locatio-conductio) ning bir turi sifatida qaralgan. Pudrat munosabatlari turli davrlarda faqatgina aholining maishiy ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositasi bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda pudrat munosabatlari alohida shartnoma turi sifatida huquqiy asoslari va nazariy jihatlari yaxshi rivojlangan. O'zbekiston qonunchilikiga muvofiq agar qonunchilikda yoki pudrat shartnomasida pudratchining shartnomada ko`rsatilgan ishni shaxsan o'zi bajarish majburiyatları kelib chiqmassa, pudratchi o'z majburiyatlarining bir qismini bajarish uchun boshqa shaxslar (yordamchi pudratchilar)ni jalb qilishga haqli. Bunday hollarda pudratchi bosh pudratchi hisoblanadi. Bosh pudratchining roziligini olgan holda buyurtmachi ayrim ishlarni bajarish uchun boshqa shaxslar bilan shartnoma tuzishga haqli. Bu holda mazkur shaxslar ishni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun bevosita buyurtmachi oldida javobgar bo`ladilar.Pudratchi ishni bajarish muddati kelishib olinadi.Ya'ni shartnomada keltirib o'tilgan bo'ladi ishni bajarishning boslang'ich vaqt va tugash vaqt. Pudrat shartnomasida boshqacha tartib nazarda utilgan bo`lmasa, pudratchi ishni bajarishning boshlang`ich va oxirgi, shuningdek oraliq muddatlarini buzganlik uchun javobgar bo`ladi.Pudrat





2-TOM, 5-SON

shartnomasi uchun Fuqarolik Kodeksi 638-moddasiga muvofiq ishga haq to`lash tartibi quyidagicha keltirib o'tilgan

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga avvaldan haq to`lash keltirilmagan bo`lmasa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ish tegishli tarzda va kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to`lashi shart.

Pudratchi qonunchilikda yoki pudrat shartnomasida nazarda tutilgan hollarda va miqdordagina o`ziga bo`nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli. Bu o`rtada Pudratchi bir bilan bir vaqtida buyurtmachining ham bir qancha majburiyatları bor. Xususan buyurtmachi Pudratchining ishni bajarishiga buyurtmachi pudrat shartnomasida keltirilgan hollarda, hajmda va tartibda yordam berishi lozim.

Buyurtmachi bu majburiyatni bajarmasa, pudratchi ko`rgan zararni, xususan bekor turib qolganlik natijasida qo`sishimcha chiqimlarni o`rnini qoplashni yoki ishni bajarish muddatini o`zgartirish yoxud pudrat shartnomasida ko`rsatilgan ish bahosini oshirishni talab qilishga haqlidir.

Buyurtmachining harakati yoki yo`l qo`ygan xatosi tufayli pudrat shartnomasi bo`yicha ishni bajarish mumkin bo`lmay qolgan taqdirda, pudratchi ishning bajarilgan qismini hisobga olgan holda shartnomada ko`rsatilgan bahoni olish huquqini saqlab qoladi. Pudratchi bajargan ish pudrat shartnomasining shartlariga, shartlar bo`limganida yoki to`liq bo`limganida esa, odatda tegishli turdag'i ishlarga qo`yiladigan talablarga mos kelishi kerak. Agar qonunchilikda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo`lmasa, bajarilgan ish natijasi buyurtmachiga topshirish paytida shartnomada ko`rsatilgan yoki odatda qo`yiladigan talablar bilan belgilangan xususiyatlarga ega bo`lishi va oqilona muddat davomida shartnomada nazarda tutilganidek foydalanish uchun, agar u shartnomada belgilangan bo`lmasa, bunday turdag'i ishning natijasidan odatdagidek foydalanish uchun yaroqli bo`lishi kerak.

Agar qonunchilikda pudrat shartnomasi bo`yicha bajariladigan ishga qo`yiladigan majburiy talablar nazarda tutilgan bo`lsa, tadbirkor sifatida ish olib borayotgan pudratchi ishni bunday majburiy talablarga amal qilgan holda bajarishi shart.

Pudratchi belgilangan majburiy talablarga nisbatan sifat jihatidan birmuncha yuqori talablarga javob beradigan ishni bajarishni pudrat shartnomasi asosida o`z zimmasiga olishi mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.:T-“Toshkent”-2022.



2-TOM, 5-SON

314-315-316-321-betlar

2. Topildiyev.; T-2022.193-194-betlar

3. Lex.uz internet manbasi

4. <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/6734>

4. [https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3217699/#:~:text=Intellectual%20property%20\(IP\)%20pertains%20to,%2C%20technical%2C%20or%20scientific%20creation.](https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3217699/#:~:text=Intellectual%20property%20(IP)%20pertains%20to,%2C%20technical%2C%20or%20scientific%20creation.)

